Mo‘minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklaster tizimi rivojlantirish yo‘nalishlari va iqtisodiy samaradorligi	1718
Ro‘ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo‘l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля)	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o‘g‘li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo‘lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko‘chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O‘zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
Axmedov Zafarjon A‘zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	
Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar	1762
Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o‘g‘li	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo‘llari	1768
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Paxta-to‘qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari	1772
Madartov Bahrom Quvondiqovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida o‘z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish.....	1776
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich	
Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari.....	1780
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	



Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari.....	1785
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
O'zbekiston va islom taraqqiyot banki: hamkorlik va rivojlanish istiqbollari.....	1789
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi	
Xodimlarni rag'batlantirish tizimida mehnatga haq to'lash	1793
Xamdamov Nuriddin Abdimalikovich	
Mahalliy budget daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'rni	1797
Kimsanboyeva Maftuna Baxodirovna	
Dunyo mamlakatlarida xorijiy talabalar oqimi tahlili va ta'lim eksportining demografik salohiyati	1802
Abdullayev Javoxir Jaxongirovich	
Davlat qarzini boshqarish amaliyotini takomillashtirish	1809
Djurayev Paxlavonjon Usarovich	
Mintaqada chakana savdoni rivojlantirish istiqbollari.....	1815
Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	1819
Omarov Mamanbiy Allabergenovich	
Mathematical statistics in biology and medicine	1826
Vokhidov Alikul, Orazbaeva Ayjamal, Tog'amurotova Jasmina, Turotova Dildora	
"Yashil" energetika salohiyatini ro'yobga chiqarishda xatarlar va muammolar: O'zbekiston sharoitida tahlil va yechimlar	1833
Nasretdinov Nodir Tulqinovich	
Aglomeratsiyalar ekologik barqarorligi: koreya respublikasi tajribasi va o'zbekistonda uni qo'llash imkoniyatlari	1837
Shohruh Shuhrat o'g'li Mardonov	
Sanoat sohasida energiya samaradorligini oshirishning iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1843
Iminov Farxodjon Tohirjonovich	
Современные принципы и дальнейшее совершенствование налогового администрирования в узбекистане.....	1848
Буранова Лола Вахобовна, Рахимова Шахло Ражапбоевна	
Роль малого и частного бизнеса в инновационном развитии экономики узбекистана: сравнительно-аналитический подход	1858
Мадраимова Согдиана Равильевна	
Sayyohlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish va ularning huquqiy huquqlarini tiklash mexanizmlari	1864
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Sanoat korxonalarida inqrosga qarshi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	1869
Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li	
Xalqaro kompaniyalarda Big Data va biznes jarayonlarini innovatsion boshqarish	1885
To'g'onov Ibrohimxo'ja, Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	1889
Darxanova Umida	
Tijorat banklarida moliyaviy injiniring konsepsiyasini mustahkamlashni takomillashtirish	1895
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich	
O'zbekistonda aholi farovonligini ta'minlash yo'llari	1902
Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li	
"Uzsuvta'minot" aj tizim tashkilotlarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil etish uchun hisob tizimining xususiyatlari.....	1906
Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich	
Ways to develop and stimulate innovative activity of the enterprise	1909
U. Yusupov, Ye Junjie	
Трансформация мировой торговли: путь от протекционизма к свободному рынку на примере узбекистана.....	1914
Олимова Насиба Акмаловна, Камилова Наргиза Абдукахоровна	



Xalqaro tajribada mulkni qayta baholash metodlari: O'zbekiston uchun moslashtirish imkoniyatlari.....	1920
Xadjayev Kamoliddin Fazliddinovich	
O'zbekistonda professional futbol klublarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish	1924
Mirzayev Ulug'bek Abdusattarovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarining huquqiy asoslari.....	1931
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni tashkil etish va innovatsion rivojlanish tendensiyalari.....	1937
Haqberdiyev Ulug'bek Nasrullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida biznes ekotizimini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1944
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
The impact of intensive urbanization in tashkent on economic stability, environmental conditions, and demographic processes.....	1949
Khandamirdzhanova B.M., Shoislomova Komila Batyrovna	
Barqaror rivojlanish va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari	1956
Maksudova Shaxzoda	
Ish bilan bandlik darajasiga makroiqtisodiy omillar: aholi jon boshiga yaim, inflatsiya, oliy ta'lim bilan qoplanish darajasining ta'sirini baholash	1961
Usmonov Ibrat Bobomurod o'g'li	
Mintaqaviy iqtisodiyotlarda kapital qo'yimalarning determinantlari: qoraqalpog'istonda aholi va byudjet daromadlarini ekonometrik o'rganish.....	1966
Sarsenbayev Baxitjan Abdulgaziyevich, Kengesbayeva Suliuxan Maxsetbay qizi, Kengesov Diyorbek Umidovich	
Klasterlash asosida xizmat ko'rsatishni rivojlantirishning muhim xususiyatlari	1970
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Rabbimov Abror Mehriddin o'g'li	
Bugungi kunda inson kapitalidan to'g'ri foydalanish	1975
Dushaboyev Lazizjon Baxrom o'g'li	
Urban aglomeratsiyalar sharoitida yer osti inshootlariga ta'sir etuvchi geologik xavflarni kompleks baholash.....	1983
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik indikatorlarini ishlab chiqish va baholash usullari.....	1987
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
Роль кооперации и агрокластеров в повышении эффективности мясомолочного производства	1991
Абдуллаев Жасурбек Абдижабборович	
Markaziy osiyo davlatlarida qishloq xo'jaligi sektorining rivojlanishi va uning iqtisodiy ahamiyati	1996
Voxidova Mehri Xasanovna, Xolxo'jayev Eldorxo'ja G'olibjon o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron hujjat aylanishining samaradorligini rivojlantirish	2002
Baxtiyorova Dildora	
Moliyaviy institutlarning yashil kredit siyosati	2008
Sotivoldiyev Asadulloh Axadjon o'g'li	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini innovatsion boshqarish usullari	2012
Ismatov Olimjon Aminjonovich	
Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishning muommolarini mahallabay ishlash tizimini takomillashtirish	2016
Abdualimov Xabibullo Ne'matullayevich	
Axborot ochiqqligining korporativ boshqaruvdagi roli va investorlarni jalb qilishdagi ta'siri	2023
Shukurova Lilolaxon Darvinxo'ja qizi, Shukurov Jakhongir Sa'dulla o'g'li	
Экономические основы развития и повышения эффективности торговых услуг в узбекистане	2027
Мусурмонова Мухлиса Самандар кизи	
Ijtimoiy sohani rivojlantirishda davlat budjet xarajatlaridan samarali foydalanish yo'llari	2032
Ajibayeva Raiiya Maxsutovna	



Avtomobil chegara bojxona postlarida bojxona ma'murchiligini yanada takomillashtirish yo'llari.....	2036
Raxmonova Nargiza Rashidovna	
К вопросу о подготовке кадров для индустрии туризма и гостепримства Республики Узбекистан.....	2042
Хисамутдинова Альбина Фанисовна	
Tijorat banklarida daromad va xarajatlarning tahlili va auditini takomillashtirish	2047
Mirzayev Faxriddin Sobirjonovich	
Yaponiya davlat xizmati tizimi: tuzilishi, ishga qabul qilish va kadrlar boshqaruvining mexanizmlari.....	2051
Abdulkarimov O'tkir Xamzaevich	
Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun investitsiyalar kiritish.....	2055
Musoyev Behruz Shaxobjon o'g'li	
Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning moliyaviy mexanizmlari.....	2060
Skuybida Yevgeniy Vladimirovich	
Mintaqaning investitsion imkoniyatlarini oshirishda xorij tajribasi.....	2065
Masharipov Sardorbek Farxadovich	
Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) islohotlari va amaliyotdagi muammolar.....	2070
Aipova Iroda Ikromovna	
Yashil moliyalashtirish va uning yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi roli	2076
Yuldashev Farhodbek Abdumutalibovich	
Prudensial nazorat mohiyati, zarurligi va uni amaliy ahamiyati	2081
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
Banklararo to'lov tizimi mexanizmini rivojlantirish istiqbollari.....	2085
Abduraximova Feruza Alisherovna	
Banklarda aholi depozitlarini xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish	2092
Azizova Gulrux Xolmamat qizi	
Electricity demand forecasting in case of Uzbekistan	2098
Otabaev Yodgorbek Marim o'g'li	
Kredit-modul muhitida talabalar mustaqil ishlarining tashkiliy tuzilmasi.....	2105
Iskandar Allazov	
Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni aniqlovchi ko'rsatkichlar tahlili hamda samaradorlikni ekonometrik modellashtirishning obyektiv zarurligi	2110
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, Saburov Javohir Kaxramon o'g'li	
O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishda hududiy resurslardan samarali foydalanish yo'llari	2123
Raximova Dilfuza Mirzakasimovna	
Цифровая трансформация производственных предприятий: опыт внедрения SAP S/4HANA в uzauto motors	2130
Юсупов Равшанбек Аминбаевич, Хусаинов Фолиб Рашидович	
Xorazm viloyati iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashning ustuvor vazifalari.....	2137
Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	
Elektr energiyasini ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va uning muqobil manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish yo'llari	2141
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
Jahon moliya tizimida kriptovalyutalarning roli: evolyutsiya va rivojlanish dinamikasi.....	2146
Jo'rayev Yahyo Ikromjon o'g'li	
Moliyaviy marketing va fond bozori: qanday qilib investorlar ishonchini yo'naltirish mumkin?.....	2150
Mirmahmudova Nozima Xusniddinovna	
Comparative literature, linguistics, and translation studies: convergences and contrasts.....	2154
Bukhara State Technical University	
Tijorat banklarida dividend siyosatining joriy holati.....	2159
Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna	
Oilaviy tadbirkorlik doirasida gulchilikni rivojlantirish	2165
Nurmatova Dilola Dilshod qizi	



Factors for developing innovative infrastructure in Uzbekistan.....	2170
Uzaydullaev Sherzod Shukurullaevich	
Raqamli transformatsiya va boshqaruvda avtomatlashtirish.....	2181
Rasulova Nargiza Shavkatovna	
Budjet tashkilotlarda asosiy vositalarning eskirishi va unga qo'yiladigan chora tadbirlar.....	2184
Shakarov Qulmat Ashirovich	
O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning istiqbolli yo'llari.....	2189
Javliyeva Gulasal Bahriddin qizi	
Islomiy moliyaviy instrumentlar va ularni hisobga olishning tijorat banklari buxgalteriyasiga ta'siri.....	2195
Valiyeva Oydin Orifjonova	
Estetik va lingvistik komponentlarning integratsiyasi: badiiy matnlar asosida til o'rgatish tajribalari.....	2201
Salomova Malika Zoxirovna	
Til o'rgatishda noverbal kommunikatsiyaning psixolingvistik asoslari.....	2206
Kazakova Dilora Gaffarovna	
Adabiy matnlar orqali til o'rgatish: ingliz adabiyotidagi obrazlar asosida til kompetensiyasini	2210
Shoyimqulova Mahzuna Shavkatovna	
Iste'molchilar motivatsiyasida afzal ko'rish nazariyalaridan foydalanish	2214
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
Davlat xaridlari tizimida shaffoflikni ta'minlash orqali budjet samaradorligini oshirish yo'llari.....	2220
Turganbaev Nursultan Bayram uli	
Hududiy notenglikni kamaytirishda ta'lim resurslarini boshqarish strategiyasi	2224
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna	
Adapting Global Project Management Frameworks for Innovation in Transitional Economies: A Case Study of Uzbekistan's Textile Industry.....	2229
Qingming Dong	
Тенденции развития финансового рынка в узбекистане.....	2234
Мадреимов Айтбай Оразбаевич, Мамутов Кутлымурат Зафар улы	
Экономическая сущность монетарной политики	2239
Шомуродов Равшан Турсункулович	
Mintaqada turizm sanoatini modernizatsiyalashning o'ziga xos xususiyatlari	2247
Salayeva Dilrabo Abdullayevna	
Тенденции и перспективы развития международного туризма в узбекистане.....	2251
Мамаризоев Жахонгир Исохонович, Тураева Сурия Тельмановна	
LMA va LSTA tajribasi asosida o'zbekistonda sindikatlashtirilgan kreditlash tizimini rivojlantirish yo'llari	2256
G'ofurov Javohir Jahongir o'g'li	
Namangan viloyatidagi kichik biznes subyektlari faoliyatini innovatsion rivojlantirish.....	2261
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li, Rasulov Ulug'bek Obidjon o'g'li	
Milliy iqtisodiyotni barqaror o'sish sharoitida hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishda hududlarning moliyaviy salohiyatini mustahkamlash masalalari.....	2266
Alimov Ilxomjon Ikromovich, Ikramov Akmalbek Ilxomjon o'g'li	
Приоритетные направления дальнейшего развития экономики путем совершенствования операций с ценными бумагами акционерных обществ	2271
Ботиров Азамат Ахмедович, Маликова Угиллой Абдурасуловна	
Barqaror iqtisodiy rivojlanishda moliyaviy inkluzivlikning rolini kuchaytirish; resurslar taqsimotining tizimli yondashuvi	2276
Xomidova Kamola G'olib qizi	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	2280
Burxanov Bahodir Baxtiyorxodjaevich	
Xorijiy mamlakatlarda bank-moliya sohasi rivojlanishida sun'iy intellekt va yuqori texnologiyalarning ta'siri.....	2286
Musagaliyev Ajiniyaz Jumagulovich	
MS Excel dasturidagi son ko'rinishida bo'lgan pul miqdorini o'zbek tilidagi so'zlar bilan ifodalash.....	2291
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna	



Joydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	2299
Javliyeva Gulasal Bahriddin qizi	
Yashil logistika konsepsiyasining barqaror rivojlanishda tutgan o'rne	2305
Boltayeva Shaxnoz Bebudovna, Muxamedova Sevara Azamatovna	
Turizm biznesi tushunchasi va uning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati	2312
Xudoyberdiyeva Hilola Himmatovna	
O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida mintaqalar iqtisodiyotining ahamiyati va rivojlanish jarayonlarining empirik tahlillari	2314
Toshaliyeva Saodat Toxirovna	
Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimini rivojlantirish orqali tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash	2320
Jubanova Bayramgul, Xojamuratova Guljaxan Nishanbay qizi	
Islom iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlari	2326
Muyassar Ziyaviddinovna Muxitdinova, Dilshod Sagdullayevich Muxitdinov	
Global va milliy tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash metodologiyasi va uning nazariy asoslari	2332
Ashurov Jaloliddin Eshpulatovich	
Xorazmda etno-folklor turizmini rivojlantirish: madaniy meros va barqaror taraqqiyot istiqbollari	2338
Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich, Raimova Nilufar Abdullayevna	
Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda investitsiya darajasini optimallashtirish: empirik tahlil va ekonometrik yondashuv	2344
Suhrob Turanov	
Mahsulot diversifikatsiyasini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish masalalari	2352
Tuychiyeva Odina Nabiyevena	
Mintaqada turizmning muhim ko'rsatkichlarini istiqboldagi prognoz qiymatlarini ishlab chiqish	2358
Jumaniyazova Sharifa Rashidovna	



MINTAQADA TURIZMNING MUHIM KO'RSATKICHLARINI ISTIQBOLDAGI PROGNOZ QIYMATLARINI ISHLAB CHIQISH

Jumaniyazova Sharifa Rashidovna

Ma'mun Universiteti "Iqtisodiyot" kafedrası v.b dotsenti, PhD

Orcid 0000-0002-4429-3277,

jumaniyazova_sharifa@mamunedu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xorazm viloyatida turizm infratuzilmasini zamonaviy shaklda tashkil qilish va uning imkoniyatlarini kengaytirish borasida bir qator ijobiy ishlar tahlil qilingan, shuningdek mintaqada turizmning muhim ko'rsatkichlarini istiqboldagi prognoz qiymatlarini ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm infratuzilmasi, daromad, turmush farovonligi, mehmonxona, turistik xizmatlar.

Abstract: This article analyzes a number of positive developments in the modern organization of tourism infrastructure in the Khorezm region and the expansion of its capabilities, as well as develops future forecast values for important tourism indicators in the region.

Key words: tourism infrastructure, income, well-being, hotel, tourist services.

Аннотация: В данной статье анализируется ряд позитивных изменений в современной организации туристической инфраструктуры Хорезмской области и расширение ее возможностей, а также разрабатываются будущие прогнозные значения важных показателей туризма в регионе.

Ключевые слова: туристическая инфраструктура, доход, благосостояние, гостиница, туристические услуги.

KIRISH

Turizm infratuzilmasi mavjud turistik salohiyatdan samarali foydalanish, turistlarni jalb qilish va buning natijasida tushumni oshirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Ya'ni, turizm infratuzilmasi keyingi davrda keskin sur'atlarda o'sayotgan turizm sanoatining rivojlanishini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Turistik destinasiyani shakllantirish va uni rivojlantirish, shuningdek turistning sayyohlik yo'nalishini tanlashi, aynan turizm infratuzilmasining mavjudligi bilan bevosita bog'liqdir. Turistik infratuzilmani rivojlantirish har bir hududning imkoniyatlari va salohiyatini hisobga olgan holda mintaqaviy sayyohlik biznesining samaradorligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu sababdan, bugungi kunda mintaqaviy turizm infratuzilmasining mohiyati, funksiyalari va tarkibiy tuzilmalarini chuqur tushunish hamda tahlil qilishning nazariy va uslubiy asoslarini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Globalashuv jarayonlarining jadallashuvi va aholi turmush darajasining oshib borishi bilan turizmga bo'lgan talab tobora diversifikatsiyalashgan va shaxsiylashtirilgan tus olmoqda. Bu holat an'anaviy ekskursiya turizmidan madaniy tajribalar, ekoturizm va boshqa ko'p qirrali yo'nalishlarga kengaymoqda. Shunday sharoitda turizmga bo'lgan talabning o'zgaruvchan tendensiyalarini anglash hamda istiqboldagi bozor kon'yunkturasini aniqlik bilan prognoz qilish turizm sohasi menejerlari va qaror qabul qiluvchi subyektlarning diqqat markazida bo'lishini taqozo etmoqda.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm infratuzilmasi deganda turistik faoliyatni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan kompleks ob'ektlar hamda xizmatlar tizimi tushuniladi. Bu tizim tarkibiga transport vositalari, turar joylar, dam olish zonalari, aloqa tarmoqlari va boshqa yordamchi infratuzilma elementlari kiradi. Mustahkam turizm infratuzilmasi tashrif buyuruvchilarni jalb qilish, joylashtirish va xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishda, shuningdek mintaqaviy rivojlanishni rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, turizmning barqaror o'sishini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Sayyohlik infratuzilmasini to'g'ri rejalashtirish va unga sarmoya kiritish natijasida sayohatchilar uchun yuqori sifatli tajriba taqdim etilishi bilan bir qatorda, destinatsiyaning iqtisodiy ta'siri ham sezilarli darajada ortadi. Ko'plab empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turizm sohasining rivojlanishi bandlik darajasini oshiradi hamda iqtisodiy o'sish uchun muhim manba bo'lishi mumkin. Biroq, bu rivojlanish ba'zan atrof-muhitga salbiy tashqi ta'sirlarni keltirib chiqaradi [1].

"Turizm infratuzilmasi", "turistik infratuzilma", "mintaqaviy turizm infratuzilmasi" tushunchalarining mohiyatini aniqlash va ularni tavsiflash masalalari ko'pincha me'yoriy-huquqiy, strategik va dasturiy boshqaruv hujjatlarida, shuningdek turizm sohasiga oid ilmiy va maxsus adabiyotlarda bayon etilgan. Iqtisodiy adabiyotlarda esa, tadqiqot obyekti va qo'yilgan maqsadga qarab, turizm ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni ta'minlaydigan korxonalar majmuasi sifatida [2], turizm sektori faoliyati uchun mavjud infratuzilma tuzilmalari va tarmoqlar tizimi sifatida [3], shuningdek, xizmatlarning to'liq turini (transfer, turar joy, ovqatlanish, transport xizmatlari va boshqalar) taqdim etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadigan obyektlar va tashkilotlar tizimi sifatida talqin qilinadi [4].

Turizm infratuzilmasi mehmondo'stlik va turizm sohasi uchun hal qiluvchi tarkibiy bo'g'indir. U sayyohlarni sayohat tajribasi davomida qo'llab-quvvatlovchi, keng ko'lamli ob'ektlar va xizmatlarni o'z ichiga oladi. Bunga odatda transport tizimi, turar joy vositalari, ovqatlanish muassasalari va diqqatga sazovor joylar kiradi [5]. Ushbu elementlarning har biri sayyohlar uchun qulaylik, xavfsizlik va umumiy qoniqishni oshirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda mintaqaviy turizmning asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish hamda ularning istiqboldagi rivojlanish tendensiyalarini prognoz qilish uchun zamonaviy statistik va matematik modellashirish usullari qo'llanildi. Jumladan, vaqt qatorlarini tahlil qilish, korrelyatsion bog'liqlikni aniqlash, ko'p omilli regressiya modellari va logarifmik transformatsiyalar asosida elastiklik koeffitsientlarini hisoblash metodlari asosiy vosita sifatida tanlandi. Tadqiqotda 2012–2022-yillar oralig'idagi rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Turistik xizmatlar hajmi va turistlar soni o'rtasidagi o'zaro ta'sirni aniqlash maqsadida logarifmik shakldagi tenglamalar orqali elastiklik koeffitsienti aniqlandi. Model tanlashda pandemiya davrining turizmga ko'rsatgan ta'siri inobatga olinib, inson kapitalining sifati ham alohida omil sifatida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turistik xizmatlarni rivojlantirish, viloyatga tashrif buyurayotgan mahalliy va xorijiy turistlar sonini ko'paytirish, shuningdek sohadan tushayotgan daromadning barqaror o'sishini ta'minlash hozirgi kunda dolzarb iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda istiqbolli choralarni ishlab chiqish uchun avvalo turistlar sonidagi o'zgarish tendensiyalarini hamda ularning turistik xizmatlar hajmiga ta'sirini chuqur o'rganish talab etiladi. Mazkur ikki ko'rsatkichning ham yuqori sur'atlarda o'sishini ta'minlash uchun, avvalo, zamonaviy turizm infratuzilmasini shakllantirish va uni bozor talablariga moslashtirish zarur.

Tadqiqot doirasida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, keyingi yillarda viloyatda turizm infratuzilmasini zamonaviy shaklda tashkil etish va uning imkoniyatlarini kengaytirish yo'lida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilgan. Biroq bu sohaga oid miqdoriy ko'rsatkichlar sifatli o'zgarishlarga to'liq mos emasligi sababli, istiqboldagi ko'rsatkichlarni aniqlashda mos prognoz modelini tanlash ehtiyoji mavjud.

Aniqlanishicha, turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan choralar kutilgan sifat o'zgarishlariga to'laqonli erishishga imkon bermayapti. Bu holat, asosan, inson kapitalining sifati bilan bevosita bog'liq. Shu bilan birga, 2020–2021-yillardagi global pandemiya davrida turistlar sonining 7,3 barobarga, turistik xizmatlardan tushgan daromadning esa 7,8 barobarga qisqargani – bu muammolarning asosiy sabablari qatoridan joy oldi.

Ushbu tahlillarga tayangan holda, dastlab viloyat bo'yicha ko'rsatilgan turistik xizmatlar hajmining real qiymati – mahalliy va xorijiy turistlar sonidagi o'zgarishlar asosida regressiya tahlili orqali baholandi. Bu esa inson kapitalining iqtisodiy natijalarga ko'rsatgan ta'sirini aniqlash imkonini berdi. Aynan pandemiya davrida har ikki ko'rsatkichda keskin o'zgarishlar kuzatilganligi sababli, logarifmik funktsiyadan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ldi. Foydalanilgan ko'rsatkichlarning o'lchov birliklari va miqyos jihatidan farqli bo'lishi, bog'liqlikni



aniqlashda elastiklik koeffitsientidan foydalanishni zarur qiladi. Shuni ta'kidlash joizki, logarifmik modelda aniqlangan koeffitsient bevosita elastiklik koeffitsientiga teng bo'ladi.

Mazkur tahlilni amalga oshirish uchun 2012–2022-yillarga oid statistik ma'lumotlar asosida quyidagi regressiya modeliga ega bo'ldi (model formulasi keyingi sahifada yoki jadvalda beriladi):

Ushbu model va uning koeffitsientlari adekvatligini asoslash uchun zaruriy mezonlar keltirib o'tilgan bo'lib, ularning qiyosiy tahlili amalga oshirildi. Jumladan aniqlangan koeffitsientlarning adekvatligini asoslash uchun Student mezonida foydalanildi. Erkinlik darajasi to'qqizga teng, ishonchlilik darajasi 95 foizni tashkil qilganda jadval qiymati 2,26 ni tashkil qilmoqda. Ozod had hamda xorijiy turistlar sonidagi o'zgarishni ta'sirini ifodalovchi koeffitsientlar bo'yicha keltirilgan qiymatlar barchasini jadval qiymatdan yuqori, biroq mahalliy turistlar sonidagi o'zgarish ta'sirini ifodalovchi koeffitsient kichik ekanligi aniqlandi.

Ya'ni mahalliy turistlar sonidagi o'zgarishni ifodalovchi koeffitsient 95 foizlik ishonch oralig'ida adekvat emas, uning ehtimollik ko'rsatkichlari ishonch oralig'ini 0,93 teng ekanligini ko'rsatmoqda. SHuningdek, aniqlangan koeffitsientlarning umumiy adekvatligini asoslash, ya'ni ularni bir vaqtini o'zidan noldan farqli ekanligini asoslash uchun Fisher mezon natijalari keltirilgan. Ushbu mezon bo'yicha jadval qiymati 9,37 ga teng bo'lsa, aniqlangan qiymat 38,62 ni tashkil qilmoqda. Bu o'z navbatida barcha koeffitsientlarni bir vaqtda noldan farqli ekanligini, ya'ni modelning adekvatligini asoslaydi.

Modelning terminatsiya koeffitsientini 0,86 ga teng bo'lishi tanlab olingan omillarni erksiz o'zgaruvchidagi o'zgarishlarning 86 foizini qamrab olayotganligini asoslaydi va modelning ishonchlilik darajasi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Durbin-Uatson statistikasining jadval qiymati natijalariga ko'ra quyi chegarasi (DL) 0,76 yuqori chegarasi (DU) 1,60 teng ekanligi aniqlandi. Bunga ko'ra aniqlangan ko'rsatkich 2,83 (zone of indecision) qarorsizlik zonasiga to'g'ri keladi. Ushbu oraliq avtokorrelyatsiya muammosi mavjud yoki mavjud emasligi bo'yicha aniqlanish qiyin (1-javdal).

Modelning ishonchlilik darajasini asoslash uchun MAPE ko'rsatkichiga ham e'tibor qaratib o'tildi, mazkur ko'rsatkichning 4,0 ga teng bo'lishi uning ishonchliligini asoslamogda. Keltirilgan tahlil natijalariga asoslangan holda ishlab chiqilgan modeldan foydalanib quyidagi xulosalarni taqdi qilishimiz mumkin. Viloyatga tashrif buyuruvchi xorijiy turistlar sonini bir foizga oshishi ko'rsatilgan turistik xizmatlar real qiymatini 0,56 foizga oshirishga xizmat qiladi. Mahalliy turistlar soni bo'yicha aniqlangan elastiklik koeffitsienti esa ancha kichik bo'lib, 0,09 ni tashkil qilmoqda. Bundan ko'rinadiki xorijiy turistlar sonini bir foizga oshirish hisobiga ta'minlanadigan daromadga o'sish sur'ati mahalliy hisobiga ta'minlanadiganidan deyarli 6 barobarga yuqori qiymatga ega bo'lmoqda.

1-jadval. Viloyatda ko'rsatilgan turistik xizmatlar real qiymati mahalliy hamda xorijiy turistlar sonidagi o'zgarishning ta'siri baholash bo'yicha regression tahlil natijalari.

Model 4: OLS, using observations 2012-2022 (T = 11)

Dependent variable: I_TS

	Coefficient	Std. Error	t-ratio	p-value	
const	1.78451	0.422743	4.221	0.0029	***
I_FT	0.561858	0.114562	4.904	0.0012	***
I_LT	0.0927887	0.0443516	2.092	0.0698	*
Mean dependent var	4.634541		S.D. dependent var	0.612695	
Sum squared resid	0.512874		S.E. of regression	0.253198	
R-squared	0.863378		Adjusted R-squared	0.829222	
F(2, 8)	25.27777		P-value(F)	0.000348	
Log-likelihood	1.252591		Akaike criterion	3.494818	
Schwarz criterion	4.688504		Hannan-Quinn	2.742367	
rho	-0.633938		Durbin-Watson	2.826493	

Xorijiy va mahalliy turistlar sonini pandemiya davrida keskin pasayganligi va haligacha pandemiya oldingi darajasiga etmaganligini hisobga oladigan bo'lsak, mavjud imkoniyatlarda to'laqonli foydalanilmayapti.



Keyingi-yillarda ularning sonini oshirish va oldingi darajasiga erishish, barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababdan mavjud tendentsiyalarni hisobga olgan holda xorijiy va mahalliy turistlar sonini ko'p variantli ekonometrik modellar asosida ishlab chiqildi.

Dastlab xorijiy turistlar sonini prognoz qiymatlarini ishlab chiqish uchun mos bo'lgan modellari ishlab chiqilda va ularning qiyosiy tahlili amalga oshirildi. Xorijiy turistlar sonini prognoz qilish uchun avvalo trend modelidan foydalanildi, faqat 2018 va 2019-yillardagi keskin o'zgarishlarni hisobga olish uchun dummy o'zgaruchidan foydalanildi. Ko'pchilik holatlarda bu kabi keskin o'zgarishlar autlayr (outlier) sifatida qaralib modeldan chiqarib tashlanadi. Biroq mazkur o'zgarishning ta'sirini baholash uchun dummy o'zgaruvchidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Regression tahlil natijalariga ko'ra quyidagi modelga ega bo'lindi.

Mazkur model koeffitsientlari Styudent mezoni natijalariga ko'ra adekvat, shuningdek determinatsiya koeffitsienti hamda Fisher mezoni natijalari ushbu modeldan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligini asoslamoqda. Durbin – Uatson statistikasi avtokorrelyatsiya muammosi mavjud emasligini asoslamoqda (2-jadval).

2-jadval. Xorijiy turistlar sonini prognoz qiymatlarini hisoblash uchun ishlab chiqilgan trend modeli natijalari.

Model 15: OLS, using observations 2012-2022 (T = 11)

Dependent variable: FT

	Coefficient	Std. Error	t-ratio	p-value	
time	7.25642	2.33889	3.103	0.0127	**
D1	159.580	23.5288	6.782	<0.0001	***
Mean dependent var	93.60909		S.D. dependent var	114.2605	
Sum squared resid	19703.27		S.E. of regression	46.78944	
Uncentered R-squared	0.913180		Centered R-squared	0.849080	
F(2, 9)	47.33137		P-value(F)	0.000017	
Log-likelihood	-56.80687		Akaike criterion	117.6137	
Schwarz criterion	118.4095		Hannan-Quinn	117.1121	
rho	-0.234313		Durbin-Watson	2.138859	

Umumiy hisobda keltirilgan tahlil natijalari mazkur model asosida prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish mumkinligini asoslaydi. Bunga asoslangan holda ishlab chiqilgan prognoz natijalari quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi (3-jadval).

Umumiy hisobda mazkur model xorijiy turistlar sonini trend asosida barqaror o'sishini ta'minlaydi, unga ko'ra 2023-yilda xorijiy turistlar soni 87077 kishini tashkil qiladi va bu 2022-yildagiga nisbatan 36,7 foizga kam. Chunki, 2022-yildagi keskin o'zgarishni oddiy trend asosida hisobga olish imkonsiz natijada 2020 va 2021-yillarga nisbatan o'sish sur'ati ta'minlangan bo'lsada 2022-yilga nisbatan pastligicha qolmoqda. Muhimi ushbu prognoz natijalari bo'yicha 2027-yilga borganda ham xorijiy turistlar soni 2022-yildagi real qiymatga nisbatan 15,6 foizga kamchligicha qoladi.

3-jadval. Xorijiy turistlar sonini tend modeli asosida hisoblangan prognoz qiymatlari¹

For 95% confidence intervals, $t(9, 0.025) = 2.262$

yillar	prognoz	o'sish sur'ati	standart xatolik	95 foizlik interval
2023	87,077	63,3	54,5618	(-36,3503, 210,504)
2024	94,334	108,3	55,801	(-31,8971, 220,564)
2025	101,590	107,7	57,1091	(-27,5999, 230,780)
2026	108,846	107,1	58,4815	(-23,4481, 241,141)
2027	116,103	106,7	59,9139	(-19,4319, 251,637)

Ushbu holatni tushinish uchun haqiqiy va model asosida baholangan ko'rsatkichlar dinamikasidagi farqlarga e'tibor qaratish kifoya. Bu esa modelga tasodifiy o'zgarishlarni ifodalash uchun qo'shimcha omillarni kiritishni talab qiladi. Shu sababdan 2020-yildagi keskin pasayish hamda 2022-yildan boshlanadigan yangi trendni hisobga olish maqsadida D_2 o'zgaruvchi kiritildi.

¹ Manba: muallif ishlanmasi



Yuqorida keltirib o'tilganlarni hisobga olgan holda xorijiy turistlar sonini prognoz ko'rsatkichlarini hisoblash ARMAX modeli ishlab chiqildi. Bunda tasodifiy o'zgarishlar ham hisobga olingan.

Xorijiy turistlar sonini o'zgarishlaridagi nobarqarorlik sababli modelni ishlab chiqishda tasodifiy o'zgaruvchilar bo'yicha laglar olindi, bundan tashqari 2018-2019-yillardagi keskin o'sishni ifodalash D_1 omil olingan va pandemiyadan keyingi chora-tadbirlar natijasida oldinga darajaga chiqishdagi o'zgarishlarni hisobga olish uchun D_2 o'zgaruvchilardan foydalanildi. Regression tahlil natijalari quyidagi 4-jadvalda keltirib o'tilgan.

4-jadval. Xorijiy turistlar sonini prognoz qiymatlarini hisoblash uchun ishlab chiqilgan ARMAX model natijalari²

Model 19: ARMAX, using observations 2012-2022 (T = 11)

Dependent variable: FT

Standard errors based on Hessian

	Coefficient	Std. Error	z	p-value	
const	44.3682	0.814630	54.46	<0.0001	***
theta_1	-2.73007	0.444802	-6.138	<0.0001	***
theta_2	2.73007	0.818212	3.337	0.0008	***
theta_3	-0.999990	0.438740	-2.279	0.0227	**
D1	136.372	2.96289	46.03	<0.0001	***
D2	49.9117	6.39244	7.808	<0.0001	***
Mean dependent var	93.60909		S.D. dependent var	114.2605	
Mean of innovations	2.052788		S.D. of innovations	9.856524	
R-squared	0.992503		Adjusted R-squared	0.987506	
Log-likelihood	-46.01675		Akaike criterion	106.0335	
Schwarz criterion	108.8188		Hannan-Quinn	104.2778	
	Real	Imaginary	Modulus	Frequency	
MA					
	Root 1	1.0000	0.0000	1.0000	0.0000
	Root 2	0.8650	-0.5017	1.0000	-0.0836
	Root 3	0.8650	0.5017	1.0000	0.0836

Taklif qilinayotgan model koeffitsientlari adekvatligini asoslash uchun keltirilgan Styudent mezon natijalari barcha koeffitsientlarni adekvat ekanligini ko'rsatmoqda. Determinatsiya koeffitsientining deyarli birga yaqin bo'lishi tanlab olingan omillarning to'g'riligidan va modelning ishonchligidan dalolat beradi.

Moled asosida baholanilgan va haqiqiy qiymatlar keltirilgan bo'lib ular deyarli ustma-ust tushmoqda va modelning ishonchligini asoslamoqda. Keltirib o'tilganlarga asoslangan holda ishlab chiqilgan ARMAX modelidan foydalanib xorijiy turistlar sonining keyingi besh-yil uchun prognoz qiymatlari hisoblanildi (5-jadval).

5-jadval. Xorijiy turistlar sonini ARMAX modeli asosida hisoblangan prognoz qiymatlari³

For 95% confidence intervals, $z(0.025) = 1.96$

yillar	prognoz	o'sish sur'ati	standart xatolik	95 foizlik interval
2023	108,834	79,15	9,85652	(89,5152, 128,152)
2024	207,76	190,90	28,6574	(151,592, 263,927)
2025	241,843	116,40	39,3108	(164,795, 318,890)
2026	293,927	121,54	40,5276	(214,494, 373,359)
2027	393,75	133,96	40,5276	(314,318, 473,183)

² Manba: muallif ishlanmasi

³ Manba: muallif ishlanmasi



Turli modellar ichida eng ishonchli variant shu model bo'lganligi sababli undan foydalanildi. Faqat tasodifiy o'zgarishlarni yuqori darajad ekanligi va bir vaqtda sodir bo'lganligi sababli 2023-yil natijalari tasodifiy o'zgarishlar ta'sirida qolib kelmoqda. Ammo keyingi-yillardagi o'zgarish umumiy tendentsiyaga mos tushmoqda. Shuningdek, boshqa modellardan farqli ravishda aynan mazkur modelda 2027-yilga borib oldingi darajadan oshishi kuzatilmoqda. Ya'ni, prognoz natijalariga ko'ra 2027-yilga borib viloyatga tashrif buyuruvchi xorijiy turistlar soni deyarli 393,7 ing kishiga etadi. Ushbu ko'rsatkich 2022-yildagiga nisbatan 2,86 barobarga ko'pdir. Aslini olganda pandemiyadan oldingi 2019-yilda viloyatga tashrif buyurgan turistlar sonini 337,4 ming kishiga teng bo'lganligini hisobga oladigan bo'lsak, faqat 2027-yilga kelibgina xorijiy turistlarni jalb qilishda oldingi natijadan oshishi mumkinligi ko'rinmoqda.

Ichki turistlar viloyatda turizm rivojini ta'minlashda salmoqli hissaga ega hisoblanadi. Keyingi-yillarda ularning ulushi 90 foizdan yuqori qiymatga ega bo'lmoqda. Ichki turistlar sonini prognoz qiymatlarini ishlab chiqish uchun yuqorida keltirilgani kabi turli modellar qarab chiqildi ammo ularning mos kelmaganligi sababli quyidagi modeldan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi.

Model va uning koeffitsientlari adekvatligini asoslash bo'yicha keltirilgan barcha mazkur modeldan prognoz qiymatlarini hisoblashda foydalanish mumkinligini asoslamogda (6-jadval).

6-jadval. Mahalliy turistlar sonini prognoz qiymatlarini hisoblash uchun ishlab chiqilgan ARMAX modeli natijalari⁴

Model 4: ARMAX, using observations 2012-2022 (T = 11)

Dependent variable: LT

Standard errors based on Hessian

	Coefficient	Std. Error	z	p-value	
const	53.5479	8.39731	6.377	<0.0001	***
theta_1	-1.94628	0.474027	-4.106	<0.0001	***
theta_2	1.00000	0.472886	2.115	0.0345	**
D3	521.317	6.25392	83.36	<0.0001	***
D4	494.143	9.72162	50.83	<0.0001	***
Mean dependent var	793.1182		S.D. dependent var	773.8901	
Mean of innovations	-8.973464		S.D. of innovations	50.24367	
R-squared	0.998277		Adjusted R-squared	0.997538	
Log-likelihood	-62.03381		Akaike criterion	136.0676	
Schwarz criterion	138.4550		Hannan-Quinn	134.5627	
	Real	Imaginary	Modulus	Frequency	
MA					
	Root 1	0.9731	-0.2302	1.0000	-0.0370
	Root 2	0.9731	0.2302	1.0000	0.0370

Model asosida baholanilgan va haqiqiy qiymatlar 4-ildavda keltirib o'tilgan. Yuqoridagilarga tayangan holda viloyatga tashrif buyuruvchi mahalliy turistlar sonini keyingi 2023-2027-yillar uchun prognoz qiymatlari aniqlandi (7-jadval).

7-jadval. Mahalliy turistlar sonini ARMAX model asosida hisoblangan prognoz qiymatlari⁵

For 95% confidence intervals, $z(0.025) = 1.96$

yillar	prognoz	o'sish sur'ati	standart xatolik	95 foizlik interval
2023	2001,94	134,49	50,2437	(1903,47, 2100,42)
2024	2535,66	126,66	109,941	(2320,18, 2751,14)
2025	3018,4	119,04	120,878	(2781,49, 3255,32)
2026	3512,55	116,37	120,878	(3275,63, 3749,46)
2027	4006,69	114,07	120,878	(3769,77, 4243,61)

⁴ Manba: muallif ishlanmasi

⁵ Manba: muallif ishlanmasi



Amalga oshirilgan prognoz natijalariga ko'ra keyingi besh-yilda viloyatga tashrif byuruvchi turistlar sonini barqaror o'sish sur'atlari ta'minlanadi. Ya'ni 2027-yilga borib 4006,69 kishiga etadi va 2022-yildagiga nisbatan 2,7 barobarga oshiqni tashkil qiladi. Bu tabiiyki yuqori ko'rsatkich ammo, aholi daromadlarini oshishi, ularni ehtiyojlarini oshib borishi hamda pandemiya davridagi pasayishni qayta tiklash kabilarni hisobga oladigan bo'lsak, keltirib o'tilgan ko'rsatkichlarni normal holatda deysish mumkin.

Umumiy hisobda viloyatda turistik xizmatlarni tashkil qilishda muammolar mavjud chunki, xorijiy va mahalliy turistlar nisbatida xorijiy turistlar ulushini oshirish lozim, bundan tashqari turli tasodifiy o'zgaruchilarning ta'siri yuqoriligi qolmoqda. Shu sababli sohada barqarorlikni ta'minlash uchun hudud imidjini shakllantirish, turistik xizmatlar sifatini oshirish va tannarxini pasaytirish, turizm infratuzilmasining xalqaro standartlar darajasiga ko'ratish lozim bo'ladi.

Fikrimizcha ishlab chiqilgan prognoz natijalariga tayangan holda keyingi besh-yildagi rivojlanish maqsadlarini belgilash va ularga erishishda turizm infratuzilmasi hamda turistik xizmatlar rivojlanishida mutanosiblikni ta'minlash, infratuzilmani samaradorligini oshirish hisobiga turistlar soni hamda turistik xizmatlardag tushum hajmini oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan ilmiy-amaliy tahlillar natijasida aniqlanishicha, mintaqaviy turizmning samarali rivojlanishi ko'p jihatdan turizm infratuzilmasining holatiga, inson kapitalining sifatiga va tashqi omillar, xususan pandemiya kabi global inqiroz holatlariga bevosita bog'liqdir. So'nggi yillarda turistik infratuzilmani rivojlantirish borasida muayyan natijalarga erishilgan bo'lsa-da, mavjud miqdoriy o'sishlar hali-hanuz sifat o'zgarishlariga to'liq mos tushmayapti. Bu esa, istiqboldagi turizm ko'rsatkichlarini aniqlashda kompleks yondashuvni, zamonaviy prognozlash modellari va iqtisodiy-matematik uslublarni keng qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

Regressiya va elastiklik tahlillari orqali turistlar soni bilan turistik xizmatlar hajmi o'rtasida mavjud bog'liqliklar aniqlanib, ularning logarifmik ko'rinishdagi modeli qurildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, pandemiya ta'siri turizm sektorida keskin qisqarishlarga olib kelgan bo'lsa-da, sohani barqarorlashtirishda inson kapitalining roli hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shu asosda, turizm infratuzilmasining rivojlanishi va istiqboldagi ko'rsatkichlarning prognoz qiymatlarini ishonchli aniqlash uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Turizm infratuzilmasini diversifikatsiya qilish

Har bir mintaqada mavjud turistik salohiyatga mos ravishda transport, turar joy, madaniy obyektlar va axborot texnologiyalari infratuzilmasini rivojlantirish zarur. Bu, turistik oqimni hududlar bo'yicha muvozanatli taqsimlashga xizmat qiladi.

Inson kapitalini rivojlantirishga ustuvor e'tibor qaratish

Turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash, til o'rgatish va xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirishga qaratilgan maxsus dasturlar ishlab chiqilishi lozim. Bu orqali turistlar bilan bevosita ishlaydigan xodimlarning professional salohiyati oshadi.

Prognozlash modellari doimiy takomillashtirish

Vaqt qatorlari, ARIMA, SARIMA, Prophet kabi zamonaviy prognozlash metodlari asosida yilma-yil tahlillar olib borilib, turistik ko'rsatkichlar bo'yicha dinamik rejalashtirishni yo'lga qo'yish tavsiya etiladi.

Pandemiya va boshqa favqulodda holatlarning ta'sirini baholash tizimini joriy qilish

Turizm sohasi inqiroz holatlarida eng ko'p zarar ko'ruvchi sektor bo'lganligi sababli, bunday risklarga nisbatan tezkor javob berish tizimini ishlab chiqish zarur.

Hududiy brending va marketing strategiyalarini kuchaytirish

Har bir viloyat va shahar o'ziga xos turistik brendni shakllantirib, uni xalqaro bozorlarda raqamli marketing orqali faol ilgari surishi kerak. Bu, mintaqaviy turizm raqobatbardoshligini oshiradi.

Statistik monitoring tizimini takomillashtirish

Turizm xizmatlari bo'yicha elektron monitoring tizimlarini joriy qilish orqali aniq va tezkor axborotga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyati oshiriladi.

Yashil turizm va ekologik barqarorlikni rivojlantirish

Turizm infratuzilmasini ekologik talablarga mos holda rivojlantirish – barqaror turizm siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lishi kerak. Bu borada xalqaro "eko-sertifikat" tizimlari tajribasidan foydalanish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azam, M., Mahmudulalam, M., Haroon Hafeez, M., 2018. Effect of tourism on environmental pollution: further evidence from Malaysia, Singapore and Thailand. J. Clean. Prod. 190, 330e338.
2. Velichkina A.V. Problems of development of tourism infrastructure in the region (on the example of the Vologda region) // Problems of development of the territories. 2014 Vol. 4 (66). Pp.40-48.



3. Каширин С.В. Туристская инфраструктура как определяющий фактор развития туризма // Социальная политика и социология. 2012. № 4(82). С. 122-129.
4. Клейман А.А. Евреинов О.Б. Совершенствование управления развития инфраструктуры туризма в регионе // Вестник национальной академии туризма. 2011 . №4. С. 44-48.
5. A. Virkar, P. Mallya. A review of dimensions of tourism transport affecting .tourism satisfaction Indian J. Commer. Manag. Stud., 9 (1) (2018), pp. 72-80



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>